



**XALQ DEPUTATLARI SHO'RCHI TUMANI
KENGASHINING QARORI**

Sho'rchi tumani, Mustaqillik ko'chasi 72-uy. 191500, tel.: (+99876) 457-45-73

2022 йил «10» август

VI-49-116-8-120-K/22

Шўрчи туман ҳокимлиги

Sho'rchi tumani mahalliy budgetining 2022 yil 2-choragi daromadlarining harajatlaridan oshgan qismi mablag'lari hisobidan mablag' ajratish to'g'risidagi VI-48-85-8-120-K/22 qaroriga o'zgartirish kiritish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrdagi “2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to'g'risida”gi O'RQ-589-sonli Qonunining 20-moddasiga muvofiq tuman mahalliy budgetining 2022 yilning 2-choragi daromadlarining xarajatlardan oshgan qismi mablag'lari hisobidan mablag' ajratish to'g'risida xalq deputatlari Sho'rchi tumani Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Sho'rchi tumani mahalliy budgetining 2022-yil 2-choragi daromadlarining harajatlaridan oshgan qismi mablag'lari hisobidan mablag' ajratish to'g'risidagi VI-48-85-8-120-K/22 qarorining 1-bandi 4-qismida ko'rsatilgan tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga tumandagi mahallalarga xo'jaliklararo ichki yo'llarni toshlash uchun 100 000 000 so'm mablag'dan iqtisod qilingan 50 000 000 so'm mablag'ni, 7-qismida ko'rsatilgan tuman hokimligiga ayollarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish viloyat hududiy bo'limi xuzuridagi Sho'rchi tumani “Ijtimoiy moslashtiruv” xonasi ijara to'lovi uchun 23 000 000 so'm jami 73 000 000 (yetmish uch million) so'm mablag'ni quyidagi yo'naliislarga ajratilsin:

- tuman “Saxovat va ko'mak” jamg'armasiga 60 000 000 so'm;
- tuman hokimligiga axborot va kommunikatsiya xizmatlari xarajatlari uchun 13 000 000 so'm;

2. Tuman budgetining qo'shimcha manbalaridan mablag' oluvchilarning rahbarlari ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanishi, shuningdek, ushbu mablag'larni ajratish uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

3. Mahalliy budgetning qo'shimcha shakllangan mablag'lari favqulodda vaziyatlarda va shunga o'xshash kechiktirib bo'lmaydigan choralar ko'riliishi talab etiladigan hollarda Kengashga keyin hisobot berish sharti bilan hokimning qarori asosida yo'naltirilishi mumkinligi belgilansin.

4. Tuman budgetining qo'shimcha manbalari tuman budgeti hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilmagan tashkilotlarni joriy saqlab turish harajatlari uchun yo'naltirishiga yo'l qo'yilmasligi belgilansin.

5. Tuman budgetining 2022-yilning har choragida daromadlarining harajatlaridan oshgan qismi mablag'lari hisobidan yo'naltirilgan mablag'lar to'g'risida xalq deputatlari tuman Kengashiga chorak yakuni bilan tuman hokimligi tomonidan hisobot berib borilishi belgilansin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (SH.Bo'ranov) zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Xalq deputatlari tuman Kengashi
raisi



Xudoyberganov B.X